



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Xorazm viloyatida
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar- iyun**

Dastlabki ma'lumotlar


Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM** dagi ulushi **68,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,2** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- iyunida **2 943** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **126,4 %**ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda - **980** ta, sanoatda - **703** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **589** ta, yashash va ovqatlanishda - **146** ta, tashish va saqlashda - **113** tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

23 535




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2 943

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yil yanvar- iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, %da

Savdo

34,6%



Sanoat

19,0%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

13,0%



Qurilish

8,7%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,9%



Tashish va saqlash

3,8%



Axborot va aloqa

1,4%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,1%




Boshqa faoliyat turlari

10,5%



Yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y.

■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-iyun

■ 2022- y. yanvar-iyun


2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da

2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – 13,0 %, Urganch tumani – 10,3 %, Hazorasp tumani – 9,1 %, Bog'ot tumani – 8,5 %, Qo'shkupir tumani – 8,1 %, Gurlan tumani – 7,9 % va Xonqa tumani – 7,5 % hissalariga to'g'ri keldi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar - iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar- iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
980 ta

Sanoatda
703 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
589 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda
146 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,6 birlikni tashkil etdi.



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*

2020- y.

11,8


2021- y.

13,6

2022- y.

12,2

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2022- yilning yanvar- iyunida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch sh.- 32,2 birlik, Xiva sh. - 21,3 birlik, Urganch tumanida 13,2 birlik, Yangibozor tumanida 13,2 birlik, Xiva tumanida 12,1 va Yangiariq tumanida 10,5 birlikni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Urganch shahri - 20,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Qo'shko'pir tumani - 7,4 birlik.

Past ko'rsatkich
Tuproqqal'a tumani - 2,4 birlik.

2022- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Urganch sh. 31,2 birlik, Xiva sh. 21,3 birlik, Yangibozor tumanida 13,2 birlik, Urganch tumanida 13,2 birlik, Xiva tumanida 12,1 birlik, Yangiariq tumanida 10,5 birlik, Gurlan tumanida 10,3 birlik, Tuproqqal'a tumanida 10,0 birlik, Xonqa tumanida 9,7 birlik, Bog'ot tumanida esa 8,3 birlikni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 65,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 52,1 %ini tashkil etdi.



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2022- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlik subyektlaritomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xiva sh.– 96,9%, Yangibozor tumanida – 92,0%, Xiva tumanida – 88,7%, Qo'shko'pir tumanida – 88,3%, Hazorasp tumanida – 76,3% va Bog'ot tumanida – 56,2% ni, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – 5,0% ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **85,4** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **35,1** %ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – 96,2%, Bog'ot tumanida – 95,6 %, Xiva sh. – 94,7 %, Urganch tumanida – 89,4 %, Xiva tumanida – 84,4%, Qo'shko'pir tumanida – 72,2 %, Gurlan tumanida – 70,4 %. Eng past ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida – 2,2 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (297,3 mlrd so'm), Urganch (200,4 mlrd so'm), Tuproqqal'a (122,9 mlrd so'm), Xonqa (106,1 mlrd so'm) va Xiva sh. (105,2 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor tumanida (39,6 mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **15,6** %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva sh. (100,0%), Urganch (45,5), Xiva (41,6%), Bog'ot (37,4%), Xonqa (35,5%), Yangiariq (33,3%), Hazorasp (29,3%), Qo'shko'pir (28,3%), Gurlan (27,4%), Urganch sh. (23,5%) va Yangibozor (19,8%) tumanlari tashkil etdi. Tuproqqal'a tumanida (2,7%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 309,0** mlrd so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **77,5%**ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,7%**ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (1157,5 mlrd so'm), Hazorasp (466,5 mlrd so'm), Gurlan (434,1 mlrd. so'm), Urganch (432,2 mlrd so'm), Xonqa (342,1 mlrd so'm) va Shovot (341,6 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 822,0** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **90,2%**ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **99,0%**ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (333,8 mlrd so'm), Xiva (209,4 mlrd so'm), Urganch (163,4 mlrd so'm), Xonqa (149,3 mlrd so'm), Qo'shko'pir (136,7 mlrd so'm), Xiva sh. (133,4 mlrd so'm) va Shovot (117,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 974,5** mlrd soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **63,0** %ini tashkil qildi va oʻsish surʼati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,6** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Urganch sh. (680,2 mlrd soʻm), Urganch (257,7 mlrd soʻm), Xonqa (242,4 mlrd soʻm), Hazorasp (226,7 mlrd soʻm), Qoʻshkoʻpir (198,7 mlrd soʻm), Bogʻot (195,9 mlrd soʻm) va Xiva (193,2 mlrd soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




■ hajm, mlrd soʻm


● oʻsish surʼati, %

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,0 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 81,9 %ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,3 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,9 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 %ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 084** ta kichik korxonalar va mikrofirma ishtirok etdi. Ularning 313 tasi (28,8%) iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 726 ta (67,0%) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 45 ta (4,2%) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,1% (88 ta), sanoatda – 17,2% (186 ta), qurilishda – 7,7% (84 ta), savdoda – 38,4% (416 ta), xizmatlar sohasida – 28,6% (310 ta) ni tashkil etdi.

2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (268 ta), Urganch (130 ta), Xonqa (87 ta), Xiva sh. (79 ta), Qo'shko'pir (70 ta) va Gurlan tumanlari (63 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaga korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 37,5%ni, savdo sohasida 31,5%ni, xizmatlar sohasida 28,4%ni va sanoatda 24,2%ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda 78,6%ni, sanoatda 69,9%ni xizmatlar sohasida 69,4%ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 44,3%ni, savdo sohasida 34,9%ni, xizmatlar sohasida 31,6%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda 76,2%ni, xizmatlar sohasida 66,8%ni, sanoatda 64,0%ni tashkil etdi.

